Sifatli ta'lim-yorqin kelajak
ISSN: 3060-4761

TerDPI ILMIY XABARNOMASI
SCIENTIFIC BULLETIN OF THE TerSPI
НАУЧНЫЙ ВЕСТНИК ТерГПИ

www.xabarnoma.terdpi.uz

UDK:7806.067:004.94
ORCID: 0009-0002-2826-1467

MUSIQA DARSLARIDA ZAMONAVIY PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH

Xo'jageldiyeva Mahfuza Ergash qizi
Termiz davlat pedagogika instituti
Musiqa mahorati va madaniyati
kafedrasi katta o`qituvchisi

Annotatsiya. Mazkur maqola musiqa darslarida pedagogik texnologiyalardan samarali foydalanishning ahamiyati va usullari haqida so'z yuritadi. Musiqa ta'limida pedagogik texnologiyalarni joriy etish orqali ta'lim jarayonining sifatini oshirish, o'quvchilarning musiqa bilimlarini samarali ravishda o'zlashtirish va ijodiy imkoniyatlarini rivojlantirish imkoniyatlari ko'rib chiqiladi. Maqolada interaktiv metodlar, axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan (AKT) foydalanish, audiovizual materiallar va boshqa innovatsion pedagogik usullarni musiqa ta'limiga tatbiq etishning afzalliklari tahlil qilinadi. Shuningdek, musiqani o'rgatishda zamonaviy pedagogik texnologiyalarni qo'llash orqali o'quvchilarni musiqiy ijodkorlikka rag'batlantirish, ularning o'z fikrlarini erkin ifoda etish va individual yondashuvlarni amalga oshirish masalalari yoritiladi.

1. Tadqiqot maqsadi. Pedagogik texnologiyalarni integratsiyalash orqali o'quvchilarning musiqa bilimlari va ijodiy ko'nikmalarini rivojlantirishga yo'naltirilgan metodik yondashuvlarni aniqlashdir.

2. Tadqiqot metodlari. Adabiyotlarni tahlil qilish, musiqa ta'limida pedagogik texnologiyalarning o'zgarishi va samaradorligini o'rganish uchun ilg'or tajribalar va amaliyotlarni tahlil etish, shuningdek, anketa so'rovnomalari va intervyular yordamida o'quvchilar va o'qituvchilarning fikr-mulohazalarini yig'ish. Tadqiqotda eksperimental metodlar, kuzatuvlar va statistik tahlil ham qo'llanilib, musiqa darslarida pedagogik texnologiyalarning ta'lim jarayoniga ta'sirini aniqlashga qaratildi.

3. Tadqiqot natijalari. Interaktiv usullar, audiovizual materiallar va axborot-kommunikatsiya texnologiyalari dars jarayoniga jiddiy ta'sir ko'rsatdi, o'quvchilarning darslarga bo'lgan qiziqish va motivatsiyasini oshirdi. Shuningdek, tadqiqot natijalari shuni tasdiqladiki, pedagogik texnologiyalarni integratsiyalash orqali o'quvchilarning o'z fikrlarini ifoda etish va individual yondashuvlar rivojlanishi uchun qulay sharoit yaratildi.

4. Xulosalar. Musiqa darslarida pedagogik texnologiyalardan samarali foydalanish ta'lim jarayonini yanada interaktiv va qiziqarli qiladi, o'quvchilarning motivatsiyasini oshirdi. Pedagogik texnologiyalarni qo'llash, ayniqsa, audiovizual materiallar va axborot-kommunikatsiya texnologiyalari, o'quvchilarga musiqa bilimlarini chuqurroq o'zlashtirish imkonini yaratdi. Tadqiqot natijalariga asoslanib, umumta'lim maktablarida musiqa madniyati darslarida o'quvchilar bilimlarini yanada oshirish bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqildi.

Kalit so'zlar: Musiqa ta'limi, pedagogik texnologiyalar, interaktiv metodlar, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari, audiovizual materiallar, ijodiy ko'nikmalar, ta'lim jarayoni, innovatsion pedagogika, o'quvchilarni rag'batlantirish, pedagogik yondashuvlar.

Sifatli ta'lim-yorqin kelajak
ISSN: 3060-4761

TerDPI ILMIY XABARNOMASI
SCIENTIFIC BULLETIN OF THE TerSPI
НАУЧНЫЙ ВЕСТНИК ТерГПИ

www.xabarnoma.terdpi.uz

МЕТОДЫ ЭФФЕКТИВНОГО ИСПОЛЬЗОВАНИЯ ПЕДАГОГИЧЕСКИХ ТЕХНОЛОГИЙ В ОБУЧЕНИИ МУЗЫКЕ

Абстрактный. В данной статье говорится о значении и методах эффективного использования педагогических технологий на уроках музыки. Рассмотрены возможности повышения качества образовательного процесса, эффективного усвоения музыкальных знаний и развития творческих способностей учащихся посредством внедрения педагогических технологий в музыкальное образование. В статье анализируются преимущества использования интерактивных методов, информационно-коммуникационных технологий (ИКТ), аудиовизуальных материалов и других инновационных педагогических методов в музыкальном образовании. Также будут освещены вопросы поощрения студентов к музыкальному творчеству, свободному выражению своих мыслей и реализации индивидуальных подходов путем использования современных педагогических технологий в обучении музыке.

1. Цель исследования. Она заключается в выявлении методических подходов, направленных на развитие музыкальных знаний и творческих способностей учащихся посредством интеграции педагогических технологий.

2. Методы исследования. Анализируйте литературу, анализируйте лучшие практики и практики для изучения изменений и эффективности педагогических технологий в музыкальном образовании, а также собирайте отзывы студентов и преподавателей с помощью анкет и интервью. В исследовании также использовались экспериментальные методы, наблюдения и статистический анализ, оно было направлено на определение влияния педагогических технологий на образовательный процесс на уроках музыки.

3. Результаты исследования. Интерактивные методы, аудиовизуальные материалы и информационно-коммуникационные технологии оказали значительное влияние на учебный процесс, повысив интерес и мотивацию учащихся на уроках. Также результаты исследования подтвердили, что за счет интеграции педагогических технологий созданы благоприятные условия для выражения студентами своего мнения и выработки индивидуальных подходов.

4. Выводы. Эффективное использование педагогических технологий на уроках музыки делает учебный процесс более интерактивным и интересным, повышает мотивацию учащихся. Использование педагогических технологий, особенно аудиовизуальных материалов и информационно-коммуникационных технологий, позволило учащимся углубленно получить музыкальные знания. По результатам исследования разработаны рекомендации по дальнейшему совершенствованию знаний учащихся на уроках музыкальной культуры в общеобразовательных школах.

Ключевые слова: Музыкальное образование, педагогические технологии, интерактивные методы, информационно-коммуникационные технологии, аудиовизуальные материалы, творческие способности, образовательный процесс, инновационная педагогика, мотивация учащихся, педагогические подходы.

METHODS OF EFFECTIVE USE OF PEDAGOGICAL TECHNOLOGIES IN MUSIC TEACHING

Annotation. This article discusses the importance and methods of effective use of pedagogical technologies in music lessons. The possibilities of improving the quality of the

educational process, effectively mastering students' musical knowledge and developing their creative abilities through the introduction of pedagogical technologies in music education are considered. The article analyzes the advantages of applying interactive methods, information and communication technologies (ICT), audiovisual materials and other innovative pedagogical methods to music education. It also covers the issues of encouraging students to musical creativity, free expression of their thoughts and implementation of individual approaches through the use of modern pedagogical technologies in music teaching.

1. Research purpose. To identify methodological approaches aimed at developing students' musical knowledge and creative skills through the integration of pedagogical technologies.

2. Research methods. The study used a literature review, best practices and practices to study the evolution and effectiveness of pedagogical technologies in music education, and collected feedback from students and teachers through questionnaires and interviews. The study also used experimental methods, observations, and statistical analysis to determine the impact of pedagogical technologies on the educational process in music lessons.

3. Research results. Interactive methods, audiovisual materials and information and communication technologies had a significant impact on the teaching process, increased students' interest and motivation in the lessons. The research results also confirmed that by integrating pedagogical technologies, favorable conditions were created for students to express their opinions and develop individual approaches.

4. Conclusions. The effective use of pedagogical technologies in music lessons makes the educational process more interactive and interesting, increases students' motivation. The use of pedagogical technologies, especially audiovisual materials and information and communication technologies, allowed students to acquire deeper musical knowledge. Based on the research results, recommendations were developed to further improve students' knowledge in musical culture lessons in secondary schools.

Keywords: Music education, pedagogical technologies, interactive methods, information and communication technologies, audiovisual materials, creative skills, educational process, innovative pedagogy, student motivation, pedagogical approaches.

KIRISH.

Hozirgi zamon ta‘lim tizimini rivojlantirish va uni jahon andozalari darajasiga olib chiqish ta'lim sohasining ustuvor vazifalaridan biridir. Ushbu davrda fan va madaniyatning eng so‘ngi yutuqlari asosida kelajagimiz bo‘lgan yosh avlodni hayotga tayyorlashning samarali shakl va uslublarini izlash nihoyatda zarurdir. O‘zbekiston sharoitida ham ta’lim tizimini modernizatsiyalashda davlat, jamiyat, mahalliy va ijtimoiy tashkilotlar, yuqori hamda quyi boshqaruv organlarining o‘rni va roli, ular o‘rtasidagi o‘zaro birlik, hamkorlik muhim ahamiyatga ega. Zamonaviy sharoitda ta’lim tizimini innovatsilon ta’lim resurslari asosida qayta qurishda, uning ustuvor yo‘nalishlari quyidagilar sanaladi:

- elektron axborot-ta’lim resurslarini yaratish;
- o‘qitishning mavjud va yangi texnologik shakllarini o‘zaro muvofiqlashtirish;
- musiqa san’atining o‘quv hamda mutaxassislik fanlari asoslarining talabalar tomonidan mustaqillik o’zlashtirilishi uchun qulay pedagogik va texnologik shart-sharoitlarni vujudga keltirish.

Musiqa ta’limining tasnifi, qonuniyatlari, tamoyillari va mezonlarini quyidagi ko‘rinishda tassavur etish mumkin. Ayni vaqtda Respublika ijtimoiy hayotiga shiddatli tezlikda axborotlar oqimi kirib

kelmoqda va keng ko‘lamni qamrab olmoqda. Axborotlarni tezkor sur’atda qabul qilib olish, ularni tahlil etish, qayta ishlash, nazariy jihatdan umumlashtirish, xulosalash hamda talabaga yetkazib berishni yo‘lga qo’yish ta’lim tizimi oldida turgan dolzarb muammolardan biri hisoblanadi. Musiqa ta’limi-tarbiyasi jarayoniga pedagogik texnologiyani tadbiq etish yuqorida qayd etilgan dolzarb muammoni ijobiy hal etishga xizmat qiladi. Avvalam bor texnologiya (yunon. “techne” – mahorat, san’at, “logos” – tushuncha, ta’limot) – muayyan (ishlab chiqarish, ijtimoiy, iqtisodiy va b.) jarayonlarning yuksak mahorat, san’at darajasida tashkil etilishi Ta‘lim texnologiyasi (ingl. “an educational technology”) – ta’lim (o’qitish) jarayonining yuksak mahorat, san’at darajasida tashkil etilishi Ta’lim texnologiyasi – ta’lim maqsadiga erishish jarayonining umumiy mazmuni, ya’ni, avvaldan loyihalashtirilgan ta’lim jarayonini yaxlit tizim asosida, bosqichma-bosqich amalga oshirish, aniq maqsadga erishish yo‘lida muayyan metod, usul va vositalar tizimini ishlab chiqish, ulardan samarali, unumli foydalanish hamda ta’lim jarayonini yuqori darajada boshqarish

Ta’lim metodi – o’quv jarayonining majmuaviy vazifalarini yechishga yo‘naltirilgan o‘qituvchi va talabalarning birgalikdagi faoliyati usuli bo‘lsa, ta’lim metodikasi esa muayyan o‘quv predmetini o‘qitishning ilmiy asoslangan metod, qoida va usullar tizimi.

O‘qituvchining samarali faoliyat ko‘rsatishga undovchi darsning metodik ishlanmasini puxta ishlab chiqishdan farqli o‘laroq, ta’lim texnologiyasi talabalar faoliyatiga nisbatan yo‘naltirilgan bo‘lib, u talabalarning shaxsiy hamda o‘qituvchi bilan birgalikdagi faoliyatlarini inobatga olgan holda, oquv materiallarini mustaqil o‘zlashtirishlari uchun zarur shart-sharoitlarni yaratishga xizmat qiladi. Musiqa ta’limi texnologiyasining markaziy muammosi – ta’lim oluvchi shaxsini yanada rivojlantirish, kasbiy (ijodiy) qobiliyatni rivojlantirish orqali ta’lim maqsadiga erishishni ta’minlashdan iborat. Musiqiy pedagogik texnologiya nazariyasi o’tgan asrning ikkinchi yarmidan boshlab asoslanib kelinayotgan bo’lsada, aynan “pedagogik texnologiya” tushunchasiga nisbatan turlicha yondashuvlar mavjud. Xususan, pedagog olim V.P.Bespalko pedagogik texnologiyani “amaliyotga tadbiq qilinadigan muayyan pedagogik tizim loyihasi” deya ta’riflaydi hamda asosiy diqqatni o‘quv-pedagogik jarayonni oldindan loyihalashga qaratadi. Musiqiy pedagogik texnologiya – ta’lim shakllarini takomillashtirish vazifasini ko‘zlagan o’qitish va boshqalarni o‘zlashtirishning barcha jarayonlarini texnika va inson omillarida, ularning birgalikdagi harakatlari vositasida yaratish, tadbiq etish va aniqlashning izchil metodi (YuNESKO). O‘z mohiyatiga ko‘ra musiqiy pedagogik texnologiya vaqt taqsimotiga muvofiq dasturlanib, ilmiy jihatdan asoslangan hamda kutilgan natijaga erishishni ta’minlovchi pedagogik jarayonning barcha bosqich va qismlarining vazifalari aniq belgilangan tizimni ifodalaydi. Musiqa ta’lim tizimini texnologiyalashtirish g‘oyasi o‘tgan asrning boshlarida G‘arbiy Yevropa va AQShda ta’lim tizimini isloh qilish, ta’lim samaradorligini oshirish, shaxsning ijtimoiylashuvini ta’minlash uchun muayyan shart-sharoitni yaratish borasidagi ijtimoiy harakat yuzaga kelgan davrda ilk bora o‘rtaga tashlandi.

Mazkur g‘oya 30-yillarda ta’lim jarayoniga “pedagogik texnika” (“ta’lim texnikasi”) tushunchasining olib kirilishi bilan asoslandi. Ushbu davrlarda yaratilgan maxsus adabiyotlarda “pedagogik (ta’lim) texnika(si)” tushunchasi “o‘quv mashg’ulotlarini aniq va samarali tashkil etishga ko‘maklashuvchi usul va vositalar yig‘indisi” tarzida talqin etildi hamda o‘quv jarayoniga o‘quv va laboratoriya jihozlarining olib kirilishi, ulardan samarali, unumli foydalanish, material mazmunini ko‘rsatmali qurollar yordamida tushuntirish

kabi holatlar ta'lim samaradorligini oshirishga yordam beruvchi yetakchi omillardir deya baholandi.

XX asrning 50-yillarida ta'lim jarayonida texnik vositalarni qo'llash "ta'lim texnologiyasi" yo'nalishini belgilab beruvchi omil deya e'tirof etildi, asosiy e'tibor talabalar auditoriyasini kengaytirish texnik vositalardan foydalanish evaziga amalga oshirilishi, texnik vositalarning imkoniyatlarini yanada takomillashtirish, ularning axborot sig'imini kengaytirish, axborotlarni uzatish xizmatini sifatli tashkil etish, ta'lim olishni individuallashtirish kabi masalalarga qaratildi. Bu borada olib borilgan tadqiqotlarning obyekti, tayanch nuqtasi sifatida texnik vositalar imkoniyatlari, ularni takomillashtirish jarayoni qabul qilindi, shuningdek, o'quv jarayonini "texnologiyalashtirish" ning tashkiliy jihatlarini o'rganishga alohida urg'u berildi.

60-yillarning boshlarida ta'limni dasturlash asosida ta'lim jarayonini tashkil etish "texnologiya" tushunchasining mohiyatini ochib beruvchi omil sifatida ko'rila boshlandi. Dasturiy ta'lim talabalarga muayyan bilimlarni alohida qism holida emas, balki izchil, yaxlit tarzda berilishini nazarda tutadi. Ta'lim jarayonini yaxlit, maqbul dasturga muvofiq tashkil etish taklifi ilk bora AQShda faoliyat yurita boshlagan "Dasturiy ta'lim va o'rgatuvchi mashinalar bo'yicha birlashgan Qo'mita" tomonidan ilgari surilgan. Dasturiy ta'lim o'zida ta'lim maqsadlari, ularni o'zgartirish va baholashning mos ravishdagi mezonlari hamda ta'lim muhitining aniq tavsifini qamrab oladi. Bu esa o'zgartirish majmuasini to'laligicha qayta tashkil etish tushunchasi mazmuniga mos keladi. Musiqa ta'limida nazariy asoslari, g'oyalari, gipotezalari, qonuniyatlari va tamoyillari bir necha jihatni o'zida aks ettiradi:

birinchisi, musiqa ta'limi va tarbiyasi hamda yuksak ijrochilik mahoratiga ega shaxs kamoloti (taraqqiyoti) birligi;

ikkinchisi musiqiy pedagogik texnologiyaning muayyan, qat'iy tizimga egaligi, "tizimlilik" tushunchasi bu o'rinda ham ma'lum musiqiy fanini o'qitish jarayoniga, ham umumiy ta'lim jarayoniga xosligi;

uchinchidan, asoslilik (fundamentlik) tamoyili fanlarning o'rganish obyekti, ichki mohiyati va xususiyatlariga ko'ra turli yo'nalish (modul)larga bo'lib o'rganish afzalliklarini ifoda etadi.

Estetik tarbiya - hissiyotining shakllanishi va rivoji, go'zallikni tushunish va unga tashnalik, shuningdek shaxs tarbiyasining ajralmas qismi bo'lgan go'zallik qonunlari asosida yashash va yaratishga intilishdir. XXI asr musiqa pedagogikasining muhim yo'nalishlaridan biri - bu o'quvchilarni kompyuter – axborot texnologiyalari bilan tanishtirishdir. Musiqa darslarida informasion texnologiyalarni qo'llash, bolalar faolligi va dars samaradorligini oshiradi. Musiqa darslarida kompyuter texnologiyalarin qo'llash, bolalarni faollashtiradi, ularni ijodiy yaratuvchanlikka undaydi. Ushbu holatda o'qituvchi shaxsi, obro'si va bilimi o'quvchiga etarli darajada kuchli ta'sir ko'rsatadi va ancha vaqtgacha saqlanadi.

Kompyuter muhiti o'quvchilarning faollik chegarasini ancha kengaytiradi va kitobga nisbatan ancha intensiv suhbatdosh hisoblanadi. O'qituvchi mahorati, fidoiyligi, ma'naviy dunyosi, o'zi va bolalar atrofida go'zallik yaratishga intilishi, o'quvchining salohiyatini ochishi, estetik faoliyatda o'zini o'zi tushunishi uchun dastlabki pillapoya hisoblanadi. Shuhbasiz ushbu jarayonda o'qituvchi shaxsi asosiy yo'naltiruvchi hisoblanib, kompyuter esa o'quv jarayonda qo'yilgan vazifalarni hal qilishda elektron yordamchi vosita hisoblanadi. Shundan kelib chiqqan holda ushbu sharoitda o'qituvchi vazifasi ancha o'zgaradi, u ma'lumot manbasi bo'lishdan o'quvchilar o'quv - o'rganish faoliyatining tashkilotchisiga aylanadi. "Musiqa" fanining xususiyati va uni o'qitish

metodikasi o‘quvchilarning dars jarayonda kompozitor, ijrochi, tinglovchilar sifatida qatnashishlarini nazarda tutadi. Maktab ta’lim tizimining komponenti asosi o‘quvchilarining o‘z ustida ijodiy ish olib borishi uchun qo‘shimcha vaqt ajratishni nazarda tutmaydi.

Bu muammoni echishda informatika va musiqa integrasiyalashgan maxsus kurs yordam berishi mumkin. Lekin bu ittifoq bir muncha g‘ayri – tabiiy bo‘lib ko‘rinsada musiqani maktab fani sifatida o‘qitishda va musiqa orqali san’at bilan muloqot qilishda katta o‘zgarishlarga olib kelishi va buning natijasida o‘quvchilarda oliy darajada musiqiy va estetik qiziqishlar uyg‘onishi mumkin. O‘quvchilarning kompyuter bilan ishlay olishlari, zamonaviy kompyuter texnologiyalaridan erkin foydalana olishlari shuhbasiz, ularda orzu – istaklar hosil bo‘lishi, yangilik yaratishga intilishning shakllanishiga turtki bo’ladi.

Musiqiy kompyuter dasturlari informatikaning eng ilg‘or sohalaridan biridir. Umumiy ta’lim tizimi musiqa darslarida informasion texnologiyalarni qo‘llash, badiiy didni shakllantirish, o‘quvchining ijodiy qobiliyatlarini o‘stirish va umuman uni garmoniy tomondan rivojlantirish uchun asos bo‘lishi mumkin. Hozirgi davrda mavzularni o‘zlashtirish uchun dars jarayoniga kiritish mumkin bo‘lgan kompyuter dasturlari mavjuddir.

Kompyuter texnologiyalarini cholg‘u asbobida ijro qilishga o‘rgatish, musiqiy uquvni rivojlantirish, musiqiy asarlarni tinglash, notalarni tahrirlashda qo‘llash mumkin. Kompyuterlarning dastur ta’minoti cholg‘u asbobi diapozonini, ijrochining passajlarni tez ijro qilishini, qochirim va dinamik tuslar ijrosi va artikulyasiyani tashhezlashda yordam beradi. Ko‘pgina fanlar uchun kompyuter ensiklopedik va bibliografik manbadir. Nihoyat, kompyuterdan nota teruvchi vosita sifatida ham qo‘llaniladi.

Kompyuter texnologiyalarini o‘zlashtirishga 2-sinfdan kirishish mumkin.

3-sinfda ular kompyuter ko‘nikmalarini to‘la o‘zlashtirib oladilar. Dars jadvali va kompyuter sinfi grafigiga muvofiq haftada bir marta kompyuter texnologiyalarini qo‘llagan holda o‘tkaziladigan bir soatlik qo‘shimcha dars ajratilishi maqsadga muvofiqdir. Bolalar muntazam ravishda ijodiy vazifalar bajarishlari, kompyuterdan foydalangan holda nota daftari yaratishlari, notalarni yozishlari mumkin.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR.

Musiqa o‘qitish metodikasiga oid ilmiy manbalarda musiqaning fan sifatida xususiyatlari, pedagogik va psixologik jihatlarini keng tahlil qiladi G. Sharipova, G’. Najmetdinov, Z. Xodjayevalarning [1] musiqa o’qitish metodikasi va maktab repertuari va D.Karimova, D.Namozovalarning[2] musiqa o‘qitishda innovatsion- pedagogik texnologiyalar kabi o‘quv qo‘llanmalarida fanning mohiyati, musiqa o‘qituvchisiga qo‘yilgan zamonaviy talablar haqida fikr yuritilgan. Q.Panjievning[3] musiqa ta’limi va san’atning dolzarb muammolari hamda zamonaviy yutuqlari kabi o‘quv uslubiy qo‘llanmalarida esa hozirgi kunda fanga qo‘yilayotgan talablar bilan tanishishimiz mumkin. Ularning fikricha, bilimlarning konstruktivist yondashuv asosida shakllanishi akademik madaniyatni rivojlantirishda muhim rol o‘ynaydi.

Pedagogik nuqtayi nazardan musiqa darslarida ta’lim texnologiyalaridan foydalanish yuzasidan N.A. Muslimovning[4] Innovatsion ta’lim texnologiyalari hamda S.I.Mirhayitovaning[5] pedagogik texnologiyalari ta’lim oluvchilarning mustaqil fikrlashi va intellektual mas’uliyatini rivojlantirish zarurligini asoslaydi.

NATIJALAR VA MUHOKAMA.

Yuqoridagi tahlillarni inobatga olgan holda, musiqa ta’limining innovatsion yondashuvlar asosida modernizatsiyalash jarayonida bir qator muhim natijalar va mantiqiy xulosalar chiqarish mumkin.

1. Musiqa ta'limining samaradorligi va pedagogik texnologiyalarning ahamiyati. Musiqa ta'limini samarali tashkil etish, o'quvchilarning individual yondoshuvlariga mos keladigan yangi pedagogik texnologiyalarni tatbiq etishga bog'liq. Elektron axborot resurslari, yangi texnologik shakllar va o'quv jarayonlarida pedagogik texnologiyalarni qo'llash musiqa ta'limining samaradorligini oshiradi. Bu jarayon o'quvchilarni nafaqat musiqa san'ati bilan tanishtiradi, balki ularning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantiradi, ta'lim jarayonini texnologiyalashtiradi.

2. Mustaqil o'rganish va innovatsion metodlarning rivoji. O'quvchilarning mustaqil fikrlashini rivojlantirish va ular uchun yangi pedagogik texnologiyalarni joriy etish jarayonida konstruktivist yondashuvlar asosida bilim olish muhim ahamiyatga ega. Innovatsion pedagogik texnologiyalarni qo'llash, o'qituvchilarning ilmiy usullarni takomillashtirishga bo'lgan ehtiyojini kuchaytiradi. Ushbu yondashuvlar o'quvchilarga nafaqat musiqa sohasidagi bilimlarni, balki hayotga tayyorlashni ham yaxshilaydi.

3. O'quv jarayonida metodik ishlanmalarning roli. O'qituvchilar darsning metodik ishlanmasini puxta ishlab chiqish orqali ta'limning yuqori samaradorligini ta'minlaydi. Metodik yondashuvlarning aniq belgilanishi, o'quvchilarni tinglab, o'zlashtirishda faollikka undaydi va ularga yuqori sifatli ta'limni taqdim etadi. Ta'lim texnologiyalarini tatbiq etish nafaqat o'quv jarayonini tashkil etish, balki o'quvchilarni ilmiy va ijodiy jihatdan rivojlantirishga qaratilgan.

4. Musiqiy pedagogik texnologiyaning tizimlilik tamoyili. Musiqiy pedagogik texnologiyaning tizimli yondashuvi ta'lim jarayonini sifatli tashkil etish va ijodiy faoliyatni rivojlantirishga yordam beradi. Bu metodik yondashuvlarni faqat bir maqsadga erishishga qaratilgan holda foydalanish, o'quv jarayonini yangilashda muvaffaqiyat keltiradi.

5. Ta'lim jarayonining texnologiyalashtirilishi va o'quvchilarga ta'siri. O'qitishning texnologiyalashuvi, o'quvchilarga yanada aniq, samarali va interfaol ta'lim olish imkonini beradi. Yangi texnologiyalarni qo'llash orqali musiqa ta'limining samaradorligi yanada oshadi va bu, o'z navbatida, musiqa fanini chuqurroq o'rganishga imkon yaratadi.

6. Pedagogik texnologiyaning rivojlanish istiqbollari. Musiqiy pedagogik texnologiyaning kelajakda rivojlanishi nafaqat ta'lim jarayonlarini takomillashtiradi, balki o'quvchilarning ijodiy va akademik qobiliyatlarini oshiradi. O'qituvchilarning ilmiy va metodik asoslangan yondashuvlari ta'lim jarayonini yangi bosqichga olib chiqadi, bu esa jamiyatda musiqa san'ati va madaniyatining yanada rivojlanishiga xizmat qiladi.

XULOSA.

Musiqa ta'limini modernizatsiya qilish va rivojlantirish jarayonida yangi pedagogik texnologiyalarni tatbiq etish juda muhim ahamiyatga ega. Bugungi kunda ta'lim tizimining innovatsion resurslar bilan boyitilishi, o'qitishning yangi metod va shakllarini qo'llash, shuningdek, mustaqil o'qish va ijodiy qobiliyatlarni rivojlantirishga qaratilgan yondashuvlar ta'lim samaradorligini sezilarli darajada oshiradi. Musiqa ta'limi jarayonida texnologiyaning samarali qo'llanilishi nafaqat o'quvchilarni musiqa san'ati bilan tanishtiradi, balki ularning ijodiy, intellektual va shaxsiy rivojlanishiga katta hissa qo'shadi.

Musiqa fanini o'quvchilar uchun yanada jozibaliroq qilish uchun o'qituvchi yangi informatsion texnologiyalar va pedagogik texnologiyalarning zamonaviy tamoillarini qo'llagan holda fanlar ichi, fanlararo munosabatlarni, o'quv jarayoni mantig'ini, o'quvchilar yosh xususiyatlari va ularning madaniy rivojlanish darajalarini e'tiborga

olishi zarur. Oddiy maktab sinfida musiqiy kompyuterni, kompyuter klavishlarini fortepiano klavishlariday yaxshi biladigan, kompyuter texnologiyalari vositasida sinfni musiqiy repertuarning turli shakllariga jalb qila oladigan tashabbuskor musiqa o‘qituvchisining mavjudligi, – musiqa darslarini tubdan o‘zgartirib yuboradi. Musiqiy kompyuter musiqa muhitini ijodiy tomondan o‘zlashtirishda cheksiz imkoniyatlar ochib beradi. Shu narsa yaqqol ravshanki kun tartibiga musiqachilarni (o‘qituvchilarni) zamonaviy tovushlar majmuasini kompyuterda dasturlashning sir-asrorlariga o'rgatish, kompyuter – axborot texnologiyalari mutaxasislari va tovush dizaynerlarga esa musiqiy ijodiyot qonuniyatlari haqida yetarlicha bilim berish muhim va darkordir.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. G. SHARIPOVA, G'. NAJMETDINOV, Z. XODJAYEVA "Musiqa o'qitish metodikasi va maktab repertuari" Andijon 2020y.
2. D.KARIMOVA, D.NAMOZOVA "Musiqa o`qitishda innovatsion- pedagogik texnologiyalar" Toshkent 2018y.
3. Q.PANJIEV "Musiqa ta'limi va san'atning dolzarb muammolari hamda zamonaviy yutuqlari" Toshkent 2023y.
4. N.A.Muslimov "Innovatsion ta'lim texnologiyalari" "Sano-standart", 2015y.
5. S.I.MIRHAYITOVA "Pedagogik texnologiyalari" Toshkent 2020y.